

Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna

Namangan davlat universiteti, PhD

Namangan, O'zbekiston

ORCID: 0000-0002-9247-3598

NAMANGAN VILOYATIDA TOG‘ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI

Annotation

Ushbu maqolada Namangan viloyatining ekoturistik tog‘li hududlari Chodak, Parda Tursun, Nanay, Obod qishloqlarida sayohatchilarning xordiq chiqarish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Ushbu tadqiqotda hududdagi sayohat segmenti har tomonlama tahlil qilingan va mahalliy turoperatorlarga Namangan viloyatida turizm bozori hajmini kengaytirish va sayohatchilarni barqaror jalb qilishda keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ekoturizm, tog‘ sayyoohligi, sayohat mahsulotlari, brend, barqaror, iste’molchilarning fokus-guruhlari, marketing strategiyasi.

Абстракт

В данной статье представлены результаты исследования, проведенного по вопросам отдыха путешественников в селах Чодак, Парда-Турсун, Нанай, Абад, экотуристических горных районах Наманганская области. В данном исследовании был всесторонне проанализирован туристический сегмент региона и разработан широкий спектр научно-практических рекомендаций для местных туроператоров по расширению размера туристического рынка Наманганской области и привлечению туристов.

Ключевые слова: Экотуризм, горный туризм, туристические продукты, бренд, устойчивое развитие, потребительские фокус-группы, маркетинговая стратегия.

Abstract

This article presents the results of the research conducted on the recreation of travelers in the villages of Chodak, Parda Tursun, Nanay, Abad, ecotourism mountainous regions of Namangan region. In this study, the travel segment in the region was comprehensively analyzed and a wide range of scientific and practical recommendations were developed for local tour operators to expand the size of the tourism market in Namangan region and attract tourists.

Keywords: Ecotourism, mountain tourism, travel products, brand, sustainable, consumer focus groups, marketing strategy.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlarida xizmatlar sohasida turizmning ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Pandemiya davrlari 2019 yil oxirlari - 2020, 2021 va 2022 yillarda 2,6 milliard xalqaro tashrifni yo‘qotdi, xalqaro turizmdan eksport daromadlari 2020 yilda 62 % ga, 2021 yilda esa 59 % ga, 2019 yilga nisbatan (real ko‘rinishda) kamaydi, keyin 2022 yilda esa qayta ko‘tarilgan bo‘lsada, pandemiyadan oldingi davrga nisbatan past bo‘ldi.¹

Ushbu uch yillik davrda turizmdan eksport tushumlarining umumiyl yo‘qotilishi 2,6 trillion AQSH dollarini tashkil etadi.

Xalqaro sayyoohlarning kelishi 2023-yilda pandemiyadan oldingi darajaning 89 %iga va 2024-yilning birinchi choragida 97 %ga yetdi.[1]. Ushbu o‘sish raqamlariga sabab turizm sohasi yo‘nalishlarining to‘xtovsiz diversifikatsiyalanishi, tinimsiz yangilanayotgan mijozlar talablarining o‘rganilayotganligi, sohaga doir ilmiy tadqiqotlarning atroflicha tadqiq

¹ <https://www.unwto.org/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>

etilayotganligidir. Xususan, tog' turizmi xususida, dunyo miqyosida tog'lar turizm sanoati dunyodagi eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, tog'li hududlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi va dam olish turizmiga sezilarli hissa qo'shamdi. Tog' turizmiga berilgan ta'riflarga ko'ra, tog' turizmi - bu ma'lum, cheklangan geografik makonda, masalan, o'ziga xos landshaft, topografiya, iqlim, biologik xilma-xillik (o'simlik va hayvonot dunyosi) va mahalliy jamoaga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar va atributlarga ega bo'lgan tepaliklar yoki tog'larda amalga oshiriladigan turistik faoliyat turi hisoblanadi.

Umuman olganda, tog'lar turizmining jozibasi, tabiiy go'zalligi, dam olish imkoniyatlari, madaniy va ekologik ahamiyati bilan chambarchas bog'liq. Nima uchun tog' turizmining jozibadorligi boshqa yo'nalishlarga nisbatan yuqori?

Birinchidan, toqqa chiqish kishini yanada baxtli va sog'lom his qilishga:

Ikkinchidan, toza havodon nafas olishga sabab bo'ladi:

Uchinchidan, tabiatning yangi go'zalligidan (yangidan zavqlanish) bahramand bo'lish imkoniyati mavjud.

Toqqa chiqish zavqi sayohatchini sayyoradagi eng go'zal joylarga olib boradi. Bu mashg'ulot qiyin, murakkab, ammo foydali, hayotiy saboqlarga to'la va boshqa turistik yo'nalishlarga o'xshamasligi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda turizm sohasiga katta e'tibor berilib, bu me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topmoqda. Qonun hujjatlarida sohadagi muammolar o'rganilib, asosiy vazifalar sifatida belgilanmoqda. Yildan-yilga yangi turistik ob'ektlar faol ob'ektlar qatoriga qo'shilmoqda.

So'nggi yillarda xizmatlar sohasining istiqbolli tarmog'i sifatida turistik xizmatlarni jadal rivojlantirishga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Mamlakatimiz olimlari tomonidan turizm xizmatlari sohasini muhim tadqiqot ob'ekti sifatida keng tadqiq qilinmoqda, bu taraqqiyot strategiyasi"^[2]da belgilangan maqsadlarga erishishda turistik xizmatlarining roli va ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda tog' turizmining ommaviyligi ortib borayotganiga qaramay, uning hajmi va ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri haqida to'liq ma'lumotlar, ilmiy tadqiqotlar yetarlicha emas. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Tog'li hamkorlik (Mountain Partnership)¹ va Jahon sayyohlik tashkiloti (BMT turizmi) tomonidan ushbu turistik yo'nalishda muntazam tadqiqotlar olib borilishi natijasida barcha xalqaro turistlarning 9% dan 16% gacha bo'lgani tog' turizmiga sektoriga to'g'ri keladi deb aytta olamiz. Ushbu maqola tadqiqot hududida hozirgi tendentsiyalarni aniqlaydi va tog' turizmi bo'yicha ma'lumotlar va dalillarga asoslangan siyosatni ilgari surish bo'yicha tavsiyalar beradi. Shuningdek, u hududda tog' turizmini rivojlantirishning asosiy omillarini, xususan, iqtisodiy foya keltirish, mahalliy aholi uchun imkoniyatlar yaratish va zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqishni tahlil qiladi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili

Mavzuga doir adabiyotlar tahlilini o'rganar ekanmiz, tog'li hududlarda sayohatlarni jozibador, xavfsiz, tashkil etishning o'ziga xos jihatlari ustida ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar M.Reynoso, M.C.Rubio, P.Salinas, F.Morabito, E. Abraham, C.Rubio, F.Díaz, L.Binda, [3], M.Elmi and S.Wolff [4], tog'li hududlarda yangi loyihalarni amalga oshirish, tabiiy hududlarni saqlash, atrof-muhitni muhofaza etish dasturi sifatida alohida belgilangan ekologik barqarorlik dasturlarini taklif qilish bilan ajralib turadi. Namangan viloyati hududidagi tog'lar va uning atrofidagi tabiiy muhit mintaqadagi eng go'zal landshaftlardan biri hisoblanadi.

Bunday tabiiy muhitli hududlarda sayohatlarni tashkil etish va xizmat ko'rsatish tashrif buyuruvchi sayohatchilarining salomatligini tiklashga xizmat qiladi, lekin xorijlik olimlardan Dodds ba Upadhayaya fikricha, ba'zi turistik yo'nalishlarda ortiqcha turistlar muammoga aylanadi. [5] Har doim sayohat vaqtি oraliq'ini kengaytirish va sayohatchilar uchun muqobil yo'nalishlarni taklif qilish orqali haddan tashqari ko'p, ommaviy turizmga murojaat qiladi. [6]. Har bir qishloqda

¹Mountain Partnership - Tog'lar hamkorligi butun dunyo bo'ylab tog'li jamoalar hayotini yaxshilash va tog' muhitini muhofaza qilishga bag'ishlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy hamkorligi va xalqaro ixtiyoriy ittifoqidir.

turizmni rivojlantirish - infratuzilmani rivojlantirish bilan qat'iy bog'liq holatda turistik ob'ektlar va xizmatlarni boyitish hamda rivojlantirish mumkin. [7], Shuningdek, tog'li yo'nalishlarda turistik faoliyatni yo'lga qo'yish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan tog'li yo'nalishlar, shuningdek, sayohatchilarga buni qanday qilish bo'yicha maslahatlar berish orqali yanada barqaror sayohat tanlashga doir tadqiqotlarni asosan Marcelo Reynoso ishlarida ko'rshimiz mumkin. [8] Masalan, "stress davri"¹ deb nomlanuvchi turizm shakli ayniqsa raqamli dunyoda o'sib ulg'ayayotgan avlod uchun ommalashmoqda. Tog'li yo'nalishlar bunday mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun ideal tarzdagi tanlovdirdi. [9]

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqot davomida guruhlash, anketa so'rovnomalari, mantiqiy tahlil usullardan hamda tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval, grafik va rasmlardan foydalananilgan.

Tahlillar va natijalar

Turizm sektorining yangi yo'nalishlarini (ekoturizm, bir kishilik sayohat, elektron turizm², mikro sarguzashtlar va umrbod sayohat³) tahlil qilar ekanmiz, dunyo bo'ylab tog'lar turizm sanoati eng muhim yo'nalishlardan biriga aylanib, tog'li hududlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib, dam olish turizmiga katta sezilarli hissa qo'shamdi.

Chotqol tog' turizmi Namangan viloyatining qayerida eng keng tarqalganligini, tog' turizmi bilan bog'liq faoliyat turlarini, bozor hajmi va tipik tog' sayyoqlarining profilini aniqlash maqsadida ko'plab ishonchli manbalarga murojaat qilgan holda tadqiqot o'tkazildi, hududda olib borilgan tadqiqotlar tog'da sayohat qiluvchilarning demografiyasi va motivatsiyasini ochib beradi.

Mavzu yuzasidan tadqiqot olib borish jarayonida turistik hududda tarqalish segmenti uchun bozor haqida asosiy tushunchalar quyidagilar ekanligi aniqlandi, jumladan: (**1-rasmga qarang**)



¹ "stressli davr yoki og'ir mehnat davridan tiklanish maqsadida sayohat qilish

² Bu veb-saytlar va smartfon ilovalari kabi virtual kanallar, ayniqsa sayyoqlar va turizm bizneslari o'tasidagi tijorat munosabatlarda tez-tez ishlataladigan turizm shaklidir.

³ "Umr bo'y davom etish" degan ma'noni anglatuvchi umrbodlik sayohat

⁴ Tadqiqotchi ishlanmasi

1.Rioya etilishi lozim bo‘lgan talablar, kerakli turistik sayohat mahsulotlarini foydalanuvchilarga qanday qilib samarali tarzda taqdim etish. (ularni jozibali ko‘rsatadi).


2. Segment uchun umumiy sayohat motivlari nima ekanligini va segmentning yildan-yilga ortib borayotgan keng ehtiyojlarini qondirish uchun mos madaniy, tarixiy va diniy diqqatga sazovor joylarni rivojlantirishning ahamiyatini chuqur o‘rganilganligi.

3. Rivojlanayotgan eng yaxshi yo'nalishlar nuqtai nazaridan Namangan viloyatining ma'lum bir geografik joylashuvga ega bo‘lgan hududda raqobat tahlili, mahalliy operatorlarning bozorda qanday ishlashiga oid misollar va geografik joylashuv segmentiga yo'naltirilgan sayohat mahsuloti misollarini targ’ib qilishlari maqsadga muvofiq.

Shuningdek, hududning tog' hududlari sayohat bozorini chuqur o‘rganish va ularning tashrif buyurish motivlarini tushunish, yaxshi qiymatga ega bo‘lgan mos sayohat mahsulotlarini yaratish, bozorga yanada samarali kirish uchun onlayn band qilish zarurati kabi muhim jihatlarni olib berdi.

Turistik mahsulot ishlab chiqish bo'yicha tavsiya, samarali brend strategiyasini yaratish va veb-saytni loyihalash va sotish, marketing strategiyasini onlayn, oflays rejimda taqdim etish hamda natijalarni o'lchash uchun hududdagi sayohat bozorlarini tushunishga yordam berish uchun batafsil bozor tadqiqotini talab qildi. Ushbu tadqiqot dastavval strategik rejalarini hududning qayerida amalga oshirish lozimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot veb-saytni loyihalash va turar joylarni onlayn sotish, marketing strategiyasini onlayn va oflays rejimda taqdim etish hamda natijalarni o'lchash uchun hududdagi sayohat bozorlarini tushunishga yordam berishda batafsil bozor tadqiqotini talab qildi.

Namangan viloyatidagi mavjud ekoturistik hududlar Chodak, Parda Tursun, Nanay, Obod qishloqlari sayohat bozori destinatsiyasi bir qator iste'molchilarining fokus-guruhlari, sayohat davomida olingan yuzma-yuz va onlayn so'rovlar, birma-bir telefon so'rovlaridan natijalarini to'plab tahlili o'tkazildi. (ekoturistik hududlar 2-rasmlarda keltirildi).



**Pop tumani,
Chodak qishlog'i tabiatি**



**Pop tumani,
Parda Tursun qishlog'i tabiatি**



**Yangiqo'rg'on tumani,
Nanay qishlog'i**



**Kosonsoy tumani,
Obod qishlog'i tabiatি**

2-rasm. Tadqiqot o'tkazilgan ekoturistik hududlar

O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi Qonunining 38-moddasiga¹ ko‘ra, ...Turistlar va ekskursantlarni sug‘urta qilish ixtiyoriydir, lekin tog‘li hududlarda ekstremal harakatlar paytida jarohatlangan taqdirda, turar joy egalari imzolangan xujjalardan voz kechishlar

¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son, <https://lex.uz/uz/docs/-4428097>

mavjudligiga qaramay, agar ko‘ngilsiz holat yuz bersa, sud jarayonlari boshlanadi, bu holat haqida o‘ylashlari kerak va shunga mos ravishda ular bunday da’volardan muvaffaqiyatli himoyalanish uchun o‘zlarini eng yaxshi holatda qonuniy himoya qilishlari lozim bo’ladi. Ko‘p hollarda, bu turar joy egalari yoki operator uchun mavjud bo’lgan himoyani maksimal darajada oshirish uchun ishlab chiqilgan qonuniy hujjatlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Pop tumanining ekoturistik tog‘li hududlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar bo‘yicha keltirilgan ma‘lumotlar jadvali tadqiqotlarimizdan ma‘lum bo‘ladiki, xususan Chodak kichik turistik zonasiga sayyoohlarni jalb etayotgan asosiy omil tabiat qo‘ynida inson qo‘li bilan yaratilgan ekstremal turizm, Parda Tursunga sayyoohlarni jalb etayotgan asosiy motiv toza havo, qorli tog‘ manzarasi hisoblanadi. Yangiyo‘rg‘on tumanining Nanay qishlog‘i esa, tabiiy jozibadorlik bo‘yicha, Kosonsoy tumanining Olmazor va Obod qishlog‘i soy bo‘yidagi so‘lim tabiat manzarasi bilan sayohatchilarni o‘ziga jalb etmoqda. Ushbu tadqiqotda ekoturistik jozibadorligi yuqori bo‘lgan tog‘ turizmini rivojlantirish imkoniyati yuqori bo‘lgan hududlar tadqiq etildi. (*I-jadvalga qarang*)

1-jadval.

Namangan viloyatining ekoturistik hududlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari (yo‘nalishlar kesimida) 500-510 nafar respondentga nisbatan olindi¹

№	Turistlar klassifikatsiyasi (yoshga nisbatan)	Turistlar klassifikatsiyasi (hududga nisbatan)	Sayohatchilar tomonidan hududdagi servisga qo‘yilgan baho 10 balldan qo‘yilgan baho				
			MQB	XSQB	TJva MNQB	JMvaQB	XX QB
I. Pop tumani, Chodak qishlog‘i bo‘yicha 501 nafar respondent							
1.	Erkaklar 134 nafar, 27%	Umumiy sayohatchilar soniga nisbatan, Namangan - 42%, 11 % uzoq viloyatlar, (Sirdaryo, Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog‘iston) qo‘shni respublika (Tojikiston, Qirg‘iziston), Farg‘ona viloyati – 22% Toshkent viloyati – 21% Andijon viloyati – 11%	5 ball	4 ball	8 ball	8 ball	0 ball
2.	Ayollar 229 nafar, 46%						
3.	Bolalar (14 yoshgacha bo‘lganlar olindi) 104 nafar, 21 %						
4.	Keksalar 34 nafar, 7 % (55 yoshdan yuqori yoshdagilar olindi)						
II. Pop tumani, Parda Tursun qishlog‘i bo‘yicha 496 nafar respondent							
1.	Erkaklar 106 nafar, 21,4 %	Umumiy sayohatchilar soniga nisbatan, Namangan - 76%, Andijon viloyati – 11% Farg‘ona viloyati – 10% Toshkent viloyati – 3 %	8 ball	7 ball	4 ball	7 ball	0 ball
2.	Ayollar 111 nafar, 22,4%						
3.	Bolalar (14 yoshgacha bo‘lganlar olindi) 12 nafar, 5,2 %						
4.	Keksalar 267 nafar, 53,8 % (55 yoshdan yuqori yoshdagisi erkak va ayollar olindi)						

¹ Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida

III. Yangiqo'rg'on tumani, Nanay qishlog'i 510 nafar respondent						
1.	Erkaklar 443 nafar, 87%	Umumiy sayohatchilar soniga nisbatan, Namangan - 72%, Farg'ona viloyati - 22%	3 ball	5 ball	6 ball	8 ball
2.	Ayollar 26 nafar, 5%					0 ball
3.	Bolalar (14 yoshgacha bo'lganlar olindi) 26 nafar, 5 %					
4.	Keksalar 15 nafar, 3 % (55 yoshdan yuqori yoshdagilar olindi)	Andijon viloyati - 11%				
IV. Kosonsoy tumani, Obod qishlog'i 506 nafar respondent						
1	Erkaklar 443 nafar, 87%	Umumiy sayohatchilar soniga nisbatan, Namangan - 68%, Farg'ona viloyati - 19%	6 ball	4 ball	4 ball	5 ball
2	Ayollar 26 nafar, 5%					0 ball
3	Bolalar (14 yoshgacha bo'lganlar olindi) 26 nafar, 5 %					
4	Keksalar 15 nafar, 3 % (55 yoshdan yuqori yoshdagilar olindi)	Andijon viloyati - 13%				

Jadvalda keltirilgan qisqartma so'zlar izohi

M – mehmondo'stlikka qo'yilgan baho

XSQB – xizmatlar sifatiga qo'yilgan baho

TJva MNQB – turar joy va mahsulotlarga narxiga qo'yilgan baho (hududdagi turar joy arzon bo'lsa, baholar yuqori, qimmat bo'lsa, past baholangan)

JMvaQB – jozibadorlik motiviga qo'yilgan baho

XX va XX – xavfsizlik (maxsus xavfsizlik xizmati nazarda tutilgan) va xavfsizlik xolati (osma ko'priklar, balandlikka ko'tarilish yo'llari, atraktsionlarga chiqish yo'llarları, zinalarning xavfsizlik darajasi)ga qo'yilgan baho chiqarilgan ballar respondentlar olingan natijalar asosida o'rtachasi olindi. Xususan, Chodak hududdagi tog'li mahallliy aholining katta qismi ish bilan ta'minlanishi barqaror emas, faqatgina mavsumiy va hudud tog'li maydonlardan iborat bo'lganligi sababli aholining dehqonchilik bilan shug'ullanishga imkoniyatlari cheklangan.

Olingan tadqiqot natijalaridan ko'rshimiz mumkinki, hududda yaratilgan ekstremal turizm ob'ektlarining xavfsizligi uchun qo'yilgan baho qoniqarsiz xolatda. Bir kechalik dam olishga keluvchilar, 2 soatlik vaqtini taom tayyorlash uchun ketkazishni istashmaydi, bu xolatda, lateral marketing'ni qo'llash afzal bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotlar, dam olishga tashrif buyuruvchilar uchun sifatli mazali taomlar tayyorlashni yetkazib berish xizmati zarurligini ko'rsatdi. Xususan, Chodakdagi o'tkazilgan tadqiqotlar 501 nafar respondentning 71%i taom tayyorlashni joylashtirish vositalarining egalariga topshirgan. 15 %i, o'zi bilan keltirgan, 14%i esa tunash joyida tayyorlash istagini bildirgan.

Turizm operatorlari hududda tog' turizmida sayohat yo'nalishlari, shuningdek, sayohatchilarga buni qanday qilish bo'yicha maslahatlar berish orqali yanada barqaror sayohat tanlashda yordam berishi lozim. Shuningdek, destinatsiyalar kamroq ma'lum bo'lgan saytlar va cheklangan tashrif buyurilgan joylarni targ'ib qilishni to'yingan yo'nalishlarni bartaraf etish va siyrak hududlarga tashrif buyuruvchilarni tarqatish uchun boshqarish vositasi sifatida boshqa hududlarga sayohatchilarni oshirishi mumkin.

¹ bu bozorda raqobatdosh ustunlikka erishish uchun bir-birini to'ldiruvchi mahsulotlar, xizmatlar yoki tashabbuslarga ega bo'lgan ikkita xizmat ko'rsatuvchi korxona birlashadigan marketingning muqobil shakli

Ushbu tadqiqotda ekoturistik hududlarni 2 ta tipga ajratib tahlil qilindi, tabiiyligini to'la to'kis saqlab qolgan xolatdagi hududlar, tabiiyligini saqlagan holatda inson qo'li bilan o'zgartirishlar kiritilgan hududlar.

Hududda "shok turizmi" deb ataladigan "Ekstremal turizm"¹ xavf hissini o'z ichiga olgan sayohat shakliga talab sezilarli rivojlanmoqda. Talab yuqori bo'lganligi sababli tashrif buyuruvchilarning 64% izini² hududga o'rnatilgan osma ko'priklar jalb etmoqda.

Mahalliy jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga turki bo'lish uchun tog' turizmining salohiyatini e'tirof etgan holda, ushbu hududda tog' turizmini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida hududda tog' turizni rivojlantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqildi: (**2-rasmga qarang**)

Viloyatimizning tog'li hududlarida ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislari tomonidan (Chortoq Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Chust, Pop tumanlarida) mahalliy aholi uchun tog' turizmini rivojlantirishga oid ekoseminarlar tashkil etish:

Tog' turizmini rivojlantirish bo'yicha yetakchi mamlakatlar (Nepal, Shvetsariya, Italiya, Avstriya) tajribasini soha mutaxassislari tomonidan tadbirkorlarga va mahalliy aholiga o'rgatish maqsadida master klasslar tashkil etish:

O'rmon hududlariga tutash bo'lgan tog'li hududlarda kempinglarni tashkil etish:

Tog'li hududlarda paraplanda uchishni tashkil etish va ushbu faoliyat bo'yicha xususiy tadbirkorlarga imtiyozlar berish:

Tog' oldi va tog'li hududlarda to'g'ridan-to'g'ri qiyalikdan pastga tushishni tog' kartingi (to'rtta g'ildirakka o'rnatilgan maxsus avtomobil) sayrini rivojlantirish:

Havo sharlarida uchishni yo'lga qo'yish (mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etgan holda) dastlabki yillarda imtiyozlar yaratib berish:

Tog'larda daraxtlar orasidan havoda sayr qilish taklif qilinadigan daraxt tepalarida arqonli ko'priklar, kabel yo'llari va zipline tushishlari bir kunlik o'rmon yurishida tashkil etish (tog'da ekstremal turizm sifatida):

Velosipedda sayr qilish tajribasiga ega bo'limgaganlar uchun baland tog'li marshrutlarga chiqishni taklif qiladigan chang'i liftlari va elektron tog' velosipedi kabilarni yo'lga qo'yish:

Tog' turizmini rivojlantirish marketing strategiyalari

2-rasm. Tog' turizmini rivojlantirish marketing strategiyalari³

¹ turistik dam olish turlaridan biri bo'lib, u yoki bu darajada xavf bilan bog'liq

² Muallif tadqiqoti ko'rsatkichlari

³ Muallif ishlanmasi

Texnologik jarayonlar takomillashib shaxsiy boylik o'sib borar ekan, hayotda bir marta bo'ladigan bunday ektremal voqe'liliklarning insonlarga beradigan zavqi haqida jamoatchilikning xabardorligi davom etib, ekstremal sarguzashtlarga bo'lgan talab faqat ortib boradi. Chunki odamlar o'zlarining hayotida bir marta bo'ladigan ajoyib voqealarni, hayotida sanoqli marta bo'ladigan tadbirlarni doimo topishga intiladilar, qidiradilar.

Xulosa

Fargona vodiysidagi eng yirik iste'molchi segmentlarini qabul qilayotgan Namangan viloyatining tog'li hududlarini Chodak, Parda Tursun, Nanay, Obod qishloqlari sayohat bozori turizm bozorini tadqiq qilish, ushbu hududlarda kichik biznes korxonalarini uchun ushbu daromadli bozor segmentiga mos sayohat mahsulotlarini ilgari surish yaxshi imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi.

Bizningcha, Namangan viloyatining tog'li hududlarini bozori segmentida keng qamrovli tadqiqot o'tkazilishi, unda kichik biznes sub'yektlari ushbu bozor segmenti uchun turizm mahsulotlarini ishlab chiqishda e'tiborga olishlari kerak bo'lgan asosiy masalalarni yoritib berdi:

1. 50 dan ortiq sayohatchilarga mos keladigan joy uchun majburiy yoki kerakli bo'lgan talablar, xususan, mavjud omillari, oldindan bo'lishi mumkin bo'lgan xavflarni baholash, standartlarni tahlil qilish.

2. Madaniyat, shaxsiy muvaffaqiyat, jismoniy faoliyat va hashamat darajasidan yuqori bo'lgan haqiqiy va immersiv tajribalar – (psixologiyada o'z ruhini ma'lum bir faoliyatga to'liq bag'ishlaganlik hissi deb ta'riflanadi va bunday holat sodir bo'lganda tanada bir vaqtning o'zida yuqori darajada hayajon va qoniqish bo'ladı) kabi ular uchun muhim bo'lgan narsalarni ta'kidlab, o'z segmentini tushunish.

3. Tog' turizm bozori qanday segmentlarga bo'lingan, ular oldindan joylarni qanday bron qilishni xohlashadi va qayerga sayohat qilishni yaxshi ko'radilar.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ayta olamizki, sayohat sug'urtasi masalalarida sug'urta polislari ham diqqat bilan ko'rib chiqilishi kerak, chunki umumi javobgarlik holatlari ko'pincha beparvolik, ehtiyyotsizlik yoki qasddan qilingan xatti-harakatlarni qoplashni istisno qiladi. Mehmonxonalar va turoperatorlar mo'ljallangan sarguzashtlar qoplanishi yoki yo'qligini aniqlash uchun o'zlarining ishchilari bilan rejalashtirilgan faoliyatni muhokama qilishlari lozim, agar mavjud bo'lsa, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak bo'lgan taqdirda qamrovni rad etishning oldini olish kerak.

Tadqiqotda hududda barqaror tog' turizmi - mahalliy jamoalar uchun yangi imkoniyatlar ekanligi aniqlandi. Hududda tog' turizmi bilan bog'liq bo'lgan sayohat turlarini, jumladan ekstremal turizm, tog' gullarini terish, piyoda yurish va trekking, tog labosida sayohat ko'rinishida tashkillash imkoniyatlari aniqlandi.

Xususan, Qurama tog' tizmasida, Chodaksoy bo'yida tashkil etilayotgan sayyoqlik bozori keng qamrovli chuqur o'rganilib, tog' turizmi rivojlanayotgan hududlardagi kichik biznes sub'yektlariga tegishli turizm paketlarini ishlab chiqish va ilgari surishda yordam berish uchun batafsil maslahatlar berilgan. Chodak, Parda Tursun, Nanay, Obod turistik bozorlari bugungi kunda viloyatdagi muhim ekoturistik bozor segmentidir va boshqa viloyatlarni mavjud talablarini jalb qilish uchun mos paketlarni ishlab chiqish, yangi imkoniyatlarni kashf etish zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-soni,
<https://lex.uz/uz/docs/-4428097>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-soni Farmoni.

3. The Central Andes and sustainable development: The Mendoza High Mountains Strategic Plan, Argentina, Marcelo Reynoso, María Clara Rubio, Pamela Salinas, Federico Morábito, Elena Abraham, Cecilia Rubio, Fabián Díaz, Lorena Gil Fain Binda, Cecilia Zabala,

Silvia Lo Bello, Pablo Betancourt and Gustavo García, Food and Agriculture Organization of the United Nations and United Nations World Tourism Organization Rome, 2021

4. Mountaineering villages for sustainable Alpine tourism, Marianna Elmi and Stephanie Wolff, Food and Agriculture Organization of the United Nations and United Nations World Tourism Organization Rome, 2021.

1.The UN Tourism Data Dashboard - BMTning turizm bo'yicha ma'lumotlar paneli, <https://www.unwto.org/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2023 yildagi PQ-135-sodn

"Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/docs-6456786>

5.Dodds, R.& Butler, R. 2019. The phenomena of overtourism: A review. International Journal of Tourism Cities [online]. Available at: www.researchgate.net/publication/336344932_The_phenomena_of_overtourism_a_review

6. Upadhyaya, P. K. 2018. Sustainable management of trekking trails for the adventure tourism in mountains: A study of Nepal's Great Himalaya Trails. Journal of Tourism & Adventure, 1(1): 1–31 [online]. Available at: www.nepjol.info/index.php/jota/article/view/22748.

7. Marianna Elmi and Stephanie Wolff, Mountaineering villages for sustainable Alpine tourism., Mountain tourism— Towards a more sustainable path, <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/f7257ef4-0b45-4c2b-b47f-80502c9e53f1/content>.

8. Marcelo Reynoso, María Clara Rubio, Pamela Salinas, The Central Andes and sustainable development: The Mendoza High Mountains Strategic Plan, Argentina.,pp-49., <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/f7257ef4-0b45-4c2b-b47f-80502c9e53f1/content>

9. Product development and mountain tourism, Marianna Elmi and Stephanie Wolff, Food and Agriculture Organization of the United Nations and United Nations World Tourism Organization Rome, 2021.

10. UN Tourism Data Dashboard - BMTning turizm ma'lumotlar paneli, <https://www.unwto.org/>